

Marhabo UMURZOQOVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-pochta: umurzakovamarkhavo@gmail.com

Tel.: (97) 490-06-76

O'zXIA professori D.Lutfullayeva taqrizi asosida

LISONIY SHAXS TUSHUNCHASINING LINGVOMADANIY ASPEKTDA O'RGANILISHI

Annotatsiya

Maqolada lisoniy shaxs tushunchasining lingvokulturologiyada o'rganilishi masalasiga e'tibor qaratilgan. Lisoniy shaxs muammosi lingvokulturologiyaning asosiy masalalaridan biri bo'lib, o'ziga xos jihatlari, belgilariga ega. Lisoniy shaxs o'zi mansub bo'lgan madaniyat haqida axborot tashuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi Kommunikativ jarayonda uning ishtirokchilari ma'lum bir til qoliplari, me'yorlariga amal qiladilar. Qoliplar va me'yorlar hamma uchun umumiy bo'lsa ham uning nutqiy hosilalari o'ziga xos hamda takrorlanmasdir. Shu takrorlanmaslik tilda lisoniy shaxsning turli-tuman tiplarini ajratishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Maqolada lisoniy shaxs muammosining o'rganilishi, yondashuvlar, lingvomadaniy tip turlari haqidagi qarashlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Lisoniy shaxs, lingvokulturologiya, submadaniyat, lingvomadaniy tip, lingvomadaniy birliklar, diskurs

STUDYING THE CONCEPT OF LINGUISTIC PERSONALITY IN THE LINGUOCULTURAL ASPECT

Annotation

The article focuses on the study of the concept of linguistic personality in linguacultural studies. The problem of linguistic personality is one of the main issues of linguacultural studies and has its own characteristics and peculiarities. Linguistic personality appears as a carrier of information about the culture to which it belongs. In the communicative process, its participants follow certain linguistic patterns and norms. Although patterns and standards are common to everyone, their speech productions are unique and unrepeatable. This lack of repetition is an important factor in distinguishing different types of linguistic personality in language. The article analyses the study of the problem of linguistic personality, approaches, views on the types of linguistic and cultural types.

Key words: Linguistic personality, linguoculturology, subculture, linguacultural type, linguacultural units, discourse

ИЗУЧЕНИЕ КОНЦЕПЦИИ ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ В ЛИНГВОКУЛЬТУРНОМ АСПЕКТЕ

Статья посвящена изучению понятия языковой личности в лингвокультурологии. Проблема языковой личности является одной из основных проблем лингвокультурологии и имеет свои особенности и знаки. Языковая личность выступает как носитель информации о культуре, к которой она принадлежит. В коммуникативном процессе его участники следуют определенным языковым закономерностям и нормам. Хотя модели и стандарты являются общими для всех, их речевая продукция уникальна и неповторима. Отсутствие повторов является важным фактором различия разных типов языковой личности в языке. В статье анализируется исследование проблемы языковой личности, подходы, взгляды на типы языкового и культурного типов.

Ключевые слова: Языковая личность, лингвокультурология, субкультура, лингвокультурный тип, лингвокультурные единицы, дискурс.

Kirish. Lisoniy shaxs tushunchasi ko'pqirrali tushuncha sifatida tilshunoslikning turli yo'nalişlarida tadqiq qilinmoqda. Lisoniy shaxs o'zi mansub bo'lgan millatning qadriyatları va dunyoqarashiga oid komponentlarni o'z ichiga oladi. Til dunyonı anglashda dastlabki va chuquq tasavvurni hosil qilishda ko'maklashadi, madaniyat va qadriyatları o'rganishda, anglashda vositachi bo'ladi. Tabiiyki, madaniyat va qadriyatlar ham o'z o'mida lisoniy shaxsning yuksalishida, yetuklik kasb etishida muhim omil sifatida xizmat qiladi. Lisoniy shaxs muammosi lingvokulturologiyaning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy-gimanitar fanlarda, xususan, tilshunoslikda ham inson va shaxs tushunchasi farqlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Lisoniy shaxs tushunchasi lingvokulturologiyada, umuman tilshunoslikda Y.N.Karaulov tadqiqotlari asosida shakllangan. V.A.Maslova, S.G.Vorkachev, V.I.Karasik kabi rus tilshunoslari metodologik asoslarini yaratgan. O'zbek tilshunosligida ushbu masalaga Sh.Usmanova, D.Xudoyberanova kabi olimlar munosabat bildirganlar. V.A.Maslova madaniyatni yaratuvchi va unda yashovchi ham inson, shaxs ekanligini, inson shaxs sifatida namoyon bo'lganda uning ijtimoiy tabiatini birinchi planga chiqishini, o'zi ijtimoiy-madaniy hayotning subyekti sifatida harakat qilishini ta'kidlagan edi [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Lisoniy shaxs muammosining lingvokulturologik aspektida o'rganilishi masalasini yoritishda tvafsivi, tipologik, semantik metodlardan foydalanildi. Diskursiv tahlil yordamida lisoniy shaxsning voqelanishi lingvokulturologik aspektida ochib berildi.

Tahlil va natijalar. Lisoniy shaxs nutqiy jarayonda namoyon bo'ladigan shaxslarning ko'p qirrali, o'ziga xos xususiyatlarga ega paradigmasidir. Kommunikativ muloqotga kirishayotgan shaxs real muloqot paradigmasidagi, faoliyatdagiligi lisoniy shaxsdir. Uning nutqida lisoniy shaxs sifatida darajasi ham, o'zi mansub madaniyatning o'ziga xosligi ham namoyon bo'ladi. "Lisoniy shaxs madaniy makonida, tilda, ijtimoiy ongning turli darajadagi shakllarida (ilmiy, maishiy va boshqalar), xulq-atvor stereotiplari va me'yorlarida, moddiy madaniyat obyektlarida va hokazolarda namoyon bo'ladi. Madaniyatda hal qiluvchi rolni milliy qadriyatlariga tegishli asosiy tushunchalar o'ynaydi". [7:119-120]. Ma'lumki, madaniyat, qadriyatlar asrlar davomida shakllanib, sayqallanib boradi. Madaniyatning tilga, tilga madaniyatning tilga ta'siri katta, ikkisini bir-biridan ajralgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi.

"Muloqot jarayonida lisoniy shaxs ma'lum bir til va madaniy jamoaning muloqotida o'rnatilgan ma'lum kognitiv-pragmatik qoidalarni bajaradigan nutqiy shaxs sifatida namoyon bo'ladi" [8:116]. Nutqiy muloqotni amalga oshiradigan shaxslar ma'lum bir til va madaniyat qoliplari, me'yorlariga amal qilsalar-da, qoliplar hamma uchun umumiy bo'lsa ham uning nutqiy hosilalari o'ziga xos hamda takrorlanmasdir. Shu takrorlanmaslik tilda lisoniy shaxsning turli-tuman tiplarini hosil qilishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Y.N.Karaulov aniqlagan lisoniy shaxs darajalarining bog'liqligi va o'zaro ta'sirining sxematiq

tasviri ham lingvistik shaxs tushunchasining mazmuni individuallikning etnik-madaniy va milliy xususiyatlari bilan qanchalik chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi [6:46].

Lisoniy shaxs qaysi millatga mansub bo'lsa, uning tilida tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy ravishda paydo bo'lgan madaniyatga xos unsurlarni ko'rish mumkin. "Til, to'g'rirog'i, til jamoasi etnosning ajralmas xususiyatini tashkil etgani kabi, lisoniy shaxsining invariant komponenti ham milliy xususiyatning bir qismidir" [6:46]. S.G.Vorkachev lisoniy shaxs haqidagi tavsiflarga to'xtalar ekan, ularda lisoniy shaxs tor ma'noda tushunilgan bo'lib, "muayyan bir shaxsga xos bo'lgan xususiyatlar majmui" yoki "qandaydir xususiyatlar tashuvchisi" sifatida qarash turg'unlashganini, bиринчи navbatda, ushbu xususiyatlarning ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi, shaxsning jamiyatga munosabati, jamiyat a'zosi ekanligi inobatga olinmaganligini qayd etadi [2]. Til va madaniyat bir-biri bilan o'zarboq'liq tushunchalar bo'lib, lisoniy shaxs va konsept lingvokulturologiyaning asosiy kategoriyalarini tashkil qiladi hamda nutq tuzish qobiliyatiga ega shaxsning dunyoqarashi, aqliy qobiliyatini aks ettiradi. V.I.Karasikning qayd etishicha, lisoniy shaxsning lingvokulturologik tahlili lingvokulturologik tiplarni modellashtirish – jamiyat a'zolariga xos xulq-atvor, umuman, til madaniyatni me'yorlarini o'zida mujassam etgan va jamiyatning barcha vakillarining xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadigan ma'lum guruhlarining umumlashtirilgan, taniqli tiplari, masalan, "rus ziylisi", "amerikalik advokat", "nemis ofitseri", "ingлиз janobi" kabilalar haqida tasavvur uyg'otishda ko'maklashadi [5]. S.Y.Godunova lisoniy shaxsni madaniyat bilan bog'lar ekan, "lisoniy shaxsning ijtimoiy-psixologik va madaniy xususiyatlarining umumlashmasi bo'lib, uning matn tuza olish ijodi qobiliyati va olamning lisoniy manzarasini aks ettirishdagagi o'ziga xoslik, atrof-muhit bilan konstruktiv munosabat, o'zga til madaniyatni muhitiga moslashuvchanlik va muloqotga ochiqlik, o'z o'rmini topish" kabilarni asosiy belgilar sifatida ko'rsatadi [3]. Lisoniy shaxsning lingvomadaniy aspektidagi tadqiqida lingvomadaniy tip tushunchasi yetakchilik qiladi. Lingvomadaniy tip "O'z xarakteri va xulq-atvori bilan lingvomadaniyatga ta'sir o'tkazuvchi, jamiyatning etnik yoki ijtimoiy o'ziga xosligini namoyon qiluvchi umumlashma obrazzi" [11] bo'lib, turli madaniyat, millat vakillarining o'ziga xos tiplari bor. Lingvomadaniy tiplarni o'rganish nazariy jihatdan muayyan bir madaniyat vakillarining milliy-madaniy dunyoqarashi haqida tasavvur hosil qilishga yordam bersa, amaliy jihatdan til o'rganuvchilar uchun shu til bilan birga madaniyatni o'zlashtirishda ham yordam beradi.

Lisoniy shaxs tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda elita lisoniy shaxsi degan tushuncha ko'p uchraydi. Elita lisoniy shaxsi diskursiv shaxsga nisbatan qo'llaniladigan termin bo'lib, bunday shaxs tilning biror bir yoki barcha uslublarida yuqori darajadagi madaniy va nutqiy kompetensiyalarning ideal tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Bunday lisoniy shaxs tildagi lingvomadaniy birliklar, xususan, frazeologizmlar, o'xshatishlar, ramzlar, nutqiy etiketlar, pretsedent birliklardan nutq jarayonida mohirlik bilan foydalananadigan hamda ma'naviy qadriyatlarni shakllanishiga hissa qo'shish imkoniyatiga ega bo'lgan diskursiv shaxs sifatida baholanadi. Olamning lisoniy manzarasida muayyan madaniyatga mansub til egalarining dunyoni obyektiv ravishda anglashi aks etsa-da, lekin insonning olamni anglashi mexanik tarzda kechmaydi, til egasi sifatida uning vogelikka ijodi, ma'lum bir ma'noda subyektiv munosabati ham qo'shiladi. Badiiy asar tilini lingvokulturologik aspektida tahlil qilish lisoniy tip haqida ma'lumot olishda ko'maklashadi. Chunki ma'lum bir xalqning yashash tarzi, an'analari, madaiyatiga oid qarashlari uning tilida, xususan, paremalarida, iboralarida, pretsedent birliklarida aks etadi. Badiiy adabiyotda esa bu birliklardan mahoratlari yozuvchilar unumli foydalananadilar. Rus tilshunosligida Y.Vodolazkin lisoniy shaxsini lingvokulturologik aspektida tadqiq qilgan O.S.Sklyarova uning yuqori darajadagi lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'lishini asarlarda intertekstuallikni ta'minlovchi vositalarning uchrashi bilan belgilaydi. Yozuvchi jahon madaniy merosidan unumli foydalananadi, bu ko'plab allyuziv nomlardan foydalananida ham ko'rinadi. Ma'lumki, allyuziv nomlar nafaqat yozuvchidan, balki o'quvchidan ham tayyorgarlik va bilim talab qiladi [9]. Lisoniy shaxs muayyan bir til egasi bo'lib, uning shaxs sifatidagi aqliy hamda ijtimoiy mansublik xususiyatlari u yaratgan matnlarda namoyon bo'ladi. Lisoniy shaxsga lingvokulturologik yondashuvda axloqiy, intellektual xususiyatlariga, xususan, boshqalarga hurmat va muloqotning axloqiy me'yorlarini bilishi hamda unga amal qilishi, aql bilan ish ko'rish, o'zini shaxs sifatida o'stirish, yangi bilimlarni olishda muntazamlik, madaniyatlichkeit yuqori darajasi, ijtimoiy mas'uliyat hissiga egalik kabi jihatlarga ham e'tibor qaratiladi. Lisoniy shaxsni lingvokulturologik aspektida tahlil qilish o'zga tilni o'rganuvchilar uchun muhim sanalsa, o'zga madaniyat vakillari bilan savdo-sotiq, tijorat, iqtisodiy aloqalarni o'rnatishda ham muhimdir. Shu jihatdan ham lingvokulturologiya tilshunoslikning boshqa yo'nalishlari bilan uzviylikda rivojlanib, taraqqiy etib bormoqda. Lisoniy shaxs tushunchasi turli fanlarning keshishmasida shakllangan lingvopersonologiyaning o'rganish obyekti bo'lsa-da, lingvokulturologiyada lisoniy shaxs muayyan madaniyat vakillarining xatti-harakatlariga sezilarli ta'sir ko'rsata oladigan shaxs turlarini aniqlashga qaratiladi.

Lisoniy shaxs muammosi lingvokulturologiyada muhum masalalardan biri ekanligini ko'rsatuvchi yana bir jihat shundaki, lisoniy shaxs o'zi mansub bo'lgan madaniyat haqida axborot tashuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bu shu tilni o'rganuvchilar uchun shu til egalarining tabiat, muloqotga kirishish salohiyati, kommunikativ sifatlari haqida ham axborot beradi. Lingvokulturologiyada olamning lisoniy manzarasi tushunchasi yetakchilik qiladi. Olamning lisoniy manzarasi muayyan tilda muloqot qiluvchi kishilarning olam haqidagi obrazlar yig'indisi, u haqidagi bilimlar tizimidir. Olamni har kim o'zicha anglashi, tasavvur qilishi mumkin, ammo uning lisoniy ifodasi esa umumiy bo'ladi. Olamni anglashda asrlar davomida to'plangan bilimlardan foydalaniilar ekan, uni aks ettirishda ham til zahiralariga murojaat qiladi, ammo bu uning bilimi, tildan foydalana olish imkoniyatlarining har xilligi bilan xilma-xillik kasb etadi. Biror bir millatga mansub shaxsning lisoniy qiyofasini tahlil qilish uchun shu tildagi iboralar, o'xshatishlar, xalq og'zaki ijodi namunalardagi obrazlar tizimini tahlil qilish zarur.

Lisoniy shaxs tushunchasi milliy xarakter, xulq-atvor tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Bu haqida V.I.Karasik quyidagicha fikr bildiradi: "Milliy xarakterni xalq tili orqali (aniqrog'i, lingvistik ong va kommunikativ xulq-atvor orqali) o'rganish turdosh fanlar – etnopsixologiya va etnosotsiologiyada olingan ma'lumotlarni hisobga olmasak, to'liq bo'lmaydi" [4]. O'zbek adabiyotida Sh.Xolmirzayevning "O'zbeklar", E.A'zamning "Anoyining jaydari olmasi" kabi hikoyalari milliylikni, asrlar davomida shakllangan qadriyatlarni hamda milliy xarakterni namoyon qiluvchi lisoniy shaxslarni uchratish mumkin bo'lgan asarlар sirasiga kiradi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, lingvomadaniy aspektida olib borilgan tadqiqotlarda ikki xil yondashuv asosida lisoniy shaxs tiplari ajratilganligini ko'rish mumkin: umumiy etnomadaniy tiplar (rus, ingliz madaniyatni vakili) va muayyan jamiyatga xos ijtimoiy-madaniy tiplar (ziyoli, amaldor, hukmdor). Lingvokulturologiya lingvomadaniy tipni lisoniy shaxsning milliy-madaniy, tarixiy hamda milliy qadriyatlarni aks ettirgan hamda o'ziga xos xarakter qirralarini namoyon qilgan umumlashma ko'rinishi sifatida o'rganadi.

Lisoniy shaxsning jamiyatda o'z-o'zini namoyon qilishi, o'zini shaxs sifatida tanitishi kabi xususiyatlari milliy-madaniy tizim asosida shakllanadi. Madaniyatlararo aloqa, bir milliy-madaniy tizimdan boshqa tizimga o'tish lisoniy shaxsda o'z aksini topmasdan qolmaydi. I.V.Bashkova lisoniy shaxsning verbal-semantic jihatlarini tadqiq qilishda asosiy e'tiborni uning

lug'at boyligiga qaratadi. Aksariyat badiiy asarlarda asosiy figura inson bo'lib, tilshunos yozuvchining lisoniy shaxsini tadqiq qilar ekan, bunda leksikasiga e'tibor qaratish zarur, chunki muallif lisoniy shaxsining o'ziga xosligi so'z tanlashi bilan namoyon bo'ladi, deb hisoblaydi [1].

Madaniyat yaxlit sistema sifatida o'z ichida kichik madaniy tizimlardan ham tashkil topadi. Muayyan millat vakili o'ziga bog'liq bo'lmagan holda madaniyat va undagi qadriyatlarni o'zida singdiradi, bu esa o'z o'rnida uning nutqida namoyon bo'ladi. Madaniyatga mansublik jihatidan lisoniy shaxslarning turli tiplarini ajratish mumkin. Kichik madaniy tizimlar turli omillar ta'sirida yuzaga keladi.

Xulosa va takliflar. Lisoniy shaxs tadqiqiga bag'ishlangan ishlarni kuzatish natijasida shu xulosaga kelish mumkinki, mavjud tadqiqotlarda ushbu masalaga ikki yil yo'nalishda yondashilgan. Birinchi yo'nalishdagi ishlarga lisoniy shaxs sifatida mashhur yozuvchi, jamoat arboblari, siyosatchilarning tili va uslubini tavsliflovchi ishlar kiritilsa, ikkinchi yo'nalishdagi tadqiqotlarda har qanday til egasi yoki sheva vakilining lisoniy shaxs sifatidagi o'ziga xosliklar tadqiq qilinganligini ko'rish mumkin. Lisoniy shaxs tasnifi shaxsnинг tilga munosabatiga asoslanadi. Har qanday til egasining ham kommunikativ kompetensiyaga egalik darajasi bir xil emas. Mana shu darajaning xilma-xilligi lingvokulturologiyada ham lisoniy shaxsning turli tiplarini yuzaga kelishi uchun asos bo'lgan.

ADABIYOTLAR

1. Башкова И.В. Теоритические основания русской семантической персонологии: объект и метод: Дисс. д-ра филол. наук. – Красноярск, 2018. – 494 с.
2. Воркачев С. Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкоznании // Филологические науки, 2001. – № 1. – С. 64-72.
3. Годунова С.Ю. Педагогические условия развития языковой личности студента технического вуза: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – М., 2008. – 24 с.
4. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
5. Карасик В.И. Дискурсивная персонология // Язык, коммуникация и социальная среда. Выпуск 7. Воронеж: ВГУ, 2007. – С.78-86.
6. Карапулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Издательство ЛКИ, 2010. – 264 с.
7. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2010. – 208с.
8. Прохоров Ю.Е. Действительность. Текст. Дискурс. – М.: Флинта, 2016. – 224 с.
9. Прохоров Ю.Е. Действительность. Текст. Дискурс. – М.: Флинта, 2016. – 224 с.
10. Склярова О.С. Лингвокогнитивный и лингвокультурный аспекты презентации элитарной языковой личности писателя в художественном дискурсе: Автореф. дисс...канд. фил. наук. – Майкоп, 2021. – 20 с.
11. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. – 246 b
12. Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг кисқача изоҳли лугати. –Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015. — 44 б.
13. Хуранова Л.А. Модель языковой личности представителя молодёжных субкультур: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Нальчик, 2018. – 27 с
14. Umurzakova M.E. Types of linguistic personality in the literary text (on the example of Ulugbek hamdam's stories) https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=w6qGLxUAAAAJ&citation_for_view=w6qGLxUAAA AJ:WF5omc3nYNoc